

ENERGETIKA SOHASIDA VUJUDGA KELISHI MUMKIN BO‘LGAN XUFYONA IQTISODIYOTNING OLDINI OLIISH IMKONIYATLARI

Ruzmatov B.SH.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Magistratura tinglovchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada, energetikaning rivojlanishida xufyona iqtisodiyotning vujudga kelishi va uning oldini olishdagi amaliy chora-tadbirlarning qay darajada ikanligi, O‘zbekistonning yoqilg‘i-energetika sohasida chet-el davlatlaridan xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashishdagi tajribalari, energetikaga oid yangi islohotlar bosqichi, O‘zbekistonda yoqilg‘i-energetikaning samaradorligini oshirishda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xufyona iqtisodiyot, chet-el tajribasida xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash, samardorlik, islohotlar bosqichi, dolzarblik, istiqbollar, istiqbolli islohotlar, energetikaga oid yangi bosqich.

O‘zbekiston o‘z energetik resurslari hisobidan o‘zining ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlovchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Markaziy Osiyo birlashgan energetika tizimidagi elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarining salmoqli hissasi respublikaga tegishlidir. Vazirlik energetika sohasida davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste‘mol qilishning texnologik jarayonining o‘ziga xosligi o‘zida “Issiqlik elektr stantsiyalari”, “O‘zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” hamda “Hududiy elektr tarmoqlari” aktsiyadorlik jamiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan markazlashtirilgan boshqaruvni saqlashni talab qiladi. 2018-yilda “Issiqlik elektr stantsiyalari” AJ issiqlik elektr stantsiyalari tomoindan 56,3 mlrd. kVt elektr energiyasi ishlab chiqarildi, 7,3 mln. Gkal issiqlik energiyasi etkazib berildi va elektr stantsiyalarning umumiy belgilangan quvvati 14 ming MVtni tashkil etadi. “Issiqlik elektr stantsiyalari” AJ tasarrufidagi elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalardan, umumiy uunligi 9,7 ming kilometrdan ortiq bo‘lgan 220-500 kV kuchlanishdagi magistral elektr tarmoqlari orqali “Hududiy elektr tarmoqlari”

AJ tasarrufidagi korxonalariga elektr energiyasini etkazib berish ishlari “O‘zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan amalga oshiriladi.

Respublikada yakuniy iste‘molchilariga elektr energiyasini sotish “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tasarrufidagi, har bir hududiy tuzilmada aksionerlik jamiyati sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘n to‘rtta taqsimlovchi va sotuvchi hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan amalga oshiriladi. Korxonalar balansida kuchlanishi 110 kVgacha bo‘lgan umumiy uzunligi 250,4 ming kilometrdan ortiq elektr tarmoqlari va 1700 ta podstantsiyalar mavjud. Respublika iste‘molchilarga elektr energiyasini etkazib berish asosan eng sertarmoq kuchlanishga ega 0,4-6-10 kVli, uzunligi 223,8 ming kilometrdan ortiq bo‘lgan elektr tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. “Issiqlik elektr stantsiyalari”, “O‘zbekiston Milliy elektr tarmoqlari” hamda “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlari loyihalash, qurilish-montaj va sozlash ishlarini bajaruvchi hamda elektr stantsiyalari va tarmoqlarining asosiy va yordamchi uskunalari ta‘mirlash va ishlatish bilan shug‘ullanuvchi yagona ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi. Rivojlangan ishlab chiqarish bazasi va yuqori malakali xodimlarning mavjudligi elektr xo‘jaligi ob‘ektlarining yuqori darajada foydalanish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasining elektr energetikasini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq vazirlik tomonidan 2030 yilgacha bo‘lgan davrda ishlab chiqarish quvvatini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilmoqda, bu umumiy quvvati 27 GVt bo‘lgan yangi energo bloklarini qurish bilan ishlab chiqarish quvvatini oshirish bo‘yicha umumiy qiymati 35 mlrd. AQSh dollariga teng bo‘lgan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga issiqlik elektr stantsiyalaridagi ma‘nan va jismonan eskirgan umumiy quvvati 6,4 GVt bo‘lgan energo bloklar ekspluatatsiyadan chiqariladi¹. Issiqlik energetikasi sohasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi energo bloklarning samaradorligi 60%ga teng yuqori samarali bug‘-gaz turbinali stantsiyalarga asoslangan zamonaviy energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishni ta‘minlaydi².

¹ Rossiyaning yoqilg‘i-energetika kompleksi va energetika strategiyasi. <http://www.proatom.ru/modules/News&file=print&sid=583>.

² 187513-4-sonli “Yer qa‘ri to‘g‘risida” Federal qonuni.



Respublikada quvvati 2,4 GVt bo'lgan birinchi atom elektr stantsiyasini qurishga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonida zamonaviy, umumiy quvvati 6,7 GVt bo'lgan quyosh va shamol elektr stantsiyalarini yaratish elektr energetikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Barqaror elektr energiyasini etkazib berish uchun umumiy qiymati 2,4 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 2,7 ming km uzunlikdagi 220-500 kV kuchlanishdagi elektr tarmoqlari hamda 9 ta yangi podstantsiyalarni qurish zarur usgbu sohani amalga oshirishda keraklicha xufyona iqtisodiyotni aralashtirmaslik bunga qarshi ta'sirchan choralar qullashlikni hayotning uzi taqoza etmoqda. Shu bilan birgalikda, umumiy qiymati 9,9 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan mavjud 39,6 ming ta transformator podstantsiyalari va 140,9 ming km uzunlikdagi 0,4-10-35-110 kV kuchlanishdagi elektr tarmoqlarida rekonstruktsiya va yangilash ishlarini amalga oshirish zarur. Tabiiyki, elektroenergetikaga zarur investitsiyalarni faqat mavjud davlat energetika kompaniyalari mablag'lari hisobidan amalga oshirish mumkin emas va biz xususiy investitsiyalarni jalb qilishga e'tiborni qaratamiz.

Umumiy quvvati 15 GVt bo'lgan elektr stantsiyalarini qurilishi 17.3 mlrd. AQSh dollariga teng to'g'ridan –to'g'ri sarmoya hisobiga rejalashtirilgan. Barcha stantsiyalar to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar hisobiga quriladi, gidroelektrstantsiyalar, atom elektrostantsiyalari va bir nechta tartibga soluvchi elektr stantsiyalar bundan mustasno. Yoqilg'i-energetika kompleksining davlat tomonidan tartibga solinishidagi ijtimoiy-iqtisodiy rolga yetarlicha baho bermaslik aholining davlat hokimiyati institutlariga bo'lgan ishonchining zaiflashishiga olib keladi. Ammo bu ishonchni oshirishga qaratilgan shoshilinch sa'y-harakatlar davlat va biznes munosabatlarida keskinlikni keltirib chiqarmoqda. Bularning ikkalasi ham mamlakatdagi investitsion vaziyatning yomonlashishiga olib keladi va investitsion risklarni oshiradi. Bu yerda ekstremal holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun yoqilg'i-energetika kompleksini davlat tomonidan tartibga solishning kontseptual asoslarini qayta ko'rib chiqish davlatimiz uchun dolzarb masalalardan biriga aylanishi zarur. Shu urinda barcha chora-tadbirlarimiz mamlakatimizning yoqilg'i-energetikaga bulgan extiyojlari makro iqtisodiyot tarmoqlarida energetika tejamkorligini oshirish uchun o'z navbatida chet el davlatlarining yoqilg'i-energetika sohasidagi tajribalariga asosan davlatimiz yoqilg'i-energetika sohasidagi imkoniyatlarni bevosita kengaytirishini ko'rishimiz mumkin.



Mamlakatning yoqilg'i-energetika sohasidagi yangi bosqichlarini chet el davlatlarining ayniqsa revojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalari asosida ushbu sohaning muhim tarmoqlari davlatning mikro va makro iqtisodiyot tizimlarida yoqilg'i-energetikaga bo'lgan talabni qondirishga erishilishini ko'rishimiz mumkin. Shu boyis quyidagi bir qator xorij mamlakatlarini ilg'or tajribalarini ko'rib chiqishni maqsad qilindi.

Yoqilg'i-energetika kompleksining Rossiya Federatsiyasi misolida

Rossiya dunyodagi eng yirik yoqilg'i-energetika resurslariga ega. Dunyodagi tasdiqlangan neft zahiralarning 13% ga yaqini va tabiiy gaz zahiralarning 34% i yer shari hududining 13% ga, ya'ni dunyo aholisining 3% dan kamrog'i istiqomat qiluvchi mamlakatda to'plangan. Rossiyada birlamchi energiya manbalarining yillik ishlab chiqarilishi jahon ishlab chiqarishining 12% dan ortig'ini tashkil qiladi. Bugungi kunda yoqilg'i-energetika kompleksi Rossiya iqtisodiyotining eng muhim, barqaror ishlaydigan va jadal rivojlanayotgan sanoat komplekslaridan biridir. U yalpi ichki mahsulotning chorak qismini, sanoat ishlab chiqarishining uchdan bir qismini, federal byudjet daromadlarining qariyb yarmini, mamlakat eksporti va valyuta tushumini tashkil qiladi. Jahon bozorida neft narxining yuqoriligi tufayli ishlab chiqarish o'sishi "Rossiyaning 2020-yilgacha bo'lgan energetika strategiyasi" da belgilangan prognozdan oshib ketdi.

Yoqilg'i-energetika kompleksining Qozog'iston misolida

Qozog'istonning Ostona shahridagi Astana Solar korxonasi foydalanishning so'nggi darajasi-fotoelektr modullarini yig'ish amalga oshirilmoqda. Qozog'istonning elektr uzatish liniyalari va taqsimlash tarmoqlari 3 qismga bo'lingan: shimolda ikkita va janubda bittasi, ularning har biri biror tashqi energetika tizimi bilan bog'langan. Bu tizimlar bir-biriga faqat bir liniya bilan ulanadi. Qozog'iston Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra bugungi kunda ikkinchi liniya qurilmoqda. Qozog'istonda gaz iste'moli barqaror o'sib bormoqda. 2017-2021 yilga qadar u qariyb 5 milliard kubga o'sdi. 2021-yil yakunlari bo'yicha mamlakatning gazlashtirish darajasi 57,67 foizni tashkil etgan, ya'ni 11 million kishi gazdan foydalanishga erishganini ko'rishimiz mumkin³.

³ Вероятнее всего, АЭС в Казахстане построят на побережье озера Балхаш-Минэнерго // EADaily, 24 мая 2022 год.



Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki O‘zbekiston Respublikasida yoqilg‘i-energetika sohasini revojlantirishda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish ushbu sohaga tegishli zarur mexanizmlar ishlab chiqish energetika sohasini raqamlashtirish, soliq organlariga entgratsiya qilish, barcha soha tarmoqlarini doimiy birlashtirishda xufyona iqtisodiyotdan xoli hududga aylantirish maqsadga muofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rossiyaning yoqilg‘i-energetika kompleksi va energetika strategiyasi.
[http://www.proatom.ru/modules. News&file=print&sid=583.](http://www.proatom.ru/modules.News&file=print&sid=583)
2. 187513-4-sonli “Yer qa’ri to‘g‘risida” Federal qonuni.
3. Вероятнее всего, АЭС в Казахстане построят на побережье озера Балхаш-Минэнерго // EADaily, 24 мая 2022 год.

Research Science and
Innovation House

